

Mavzu: Milliy boylik statistikasi

REJA

- Kapital bilan operatsiyalar schyoti
- Nomoliyaviy aktivlar
- Intellektual aktivlar

Milliy boylik – makroiqtisodiy statistikaning tayanch ko'rsatkichlaridan biridir.

Uning hajmi (solishtirma baholarda) – mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy salohiyatini ifodalaydi, aholi jon boshiga to'g'ri keladigan miqdori esa – mamlakatning iqtisodiy rivojlanish darajasiga baho beradi.

Birinchi qarash namoyondalari milliy boylik tushunchasiga keng ma'noda yondoshib, unga qiymat ko'inishda hisoblangan avlodlar mehnati natijasida buyumlashtirilgan ishlab chiqarish vositalari va iste'mol predmetlari zahirasi va natura o'lchov birligida hisoblanadigan ishlab chiqarish jarayoniga tortilmagan tabiiy resurlar, mehnat resurslari, hamda ushbu davrda ishlab chiqarilgan mahsulotlar yig'indisi sifatida ta'rif berishgan.

Ikkinchi qarash namoyondalari unga qiymat ko'inishda hisoblangan avlodlar mehnati natijasida buyumlashtirilgan ishlab chiqarish vositalari va iste'mol predmetlari zahirasi va natura o'lchov birligida hisoblanadigan ishlab chiqarish jarayoniga tortilgan tabiiy resurlar sifatida ta'rif berishgan.

davom etadi

Uchinchi qarash namoyondalari milliy boylik tushunchasiga ularni bir xil o'lchov birligida hisoblash imkoniyatlaridan kelib chiqib, unga har bir momentda ishlab chiqarish sohasida ishlab chiqarilgan va ishlab chiqarilgan mahsulotning iste'mol qilingan ishlab chiqarish vositalari va mehnat predmetlaridan ortib qolgan qismi sifatida qarashgan.

Sobiq sovet davridagi iqtisodchi-statistiklar orasida kengroq tarqalgan ikkinchi qarashga ko'ra milliy boylikning avlodlar mehnati natijasida buyumlashtirilgan moddiy ne'matlar qismi – milliy mulk, ishlab chiqarish jarayoniga tortilgan zahiralari - tabiiy resurslar, deb nomlangan. Ikkinchi qismi inson faoliyatidan bog'liq bo'lmagan xolda tabiiy ravishda takror ishlab chiqariladi.

Milliy boylik va milliy daromad tushunchalarining farqlanishi

Milliy boylik nomoliyaviy aktivlar va tashqi dunyoga sof talablarni ifodalab, milliy daromadni ishlab chiqarishda qatnashadi. O'z navbatida milliy daromadning bir qismi ishlab chiqarish jarayonida iste'mol qilingan, eskirib va boshqa sabablarga ko'ra oborotdan chiqib ketgan kapital o'rnini qoplash uchun asosiy manba bo'lib hisoblanadi.

BMT va Jahon bankini Milliy boylikning tarkibi, hajmi, strukturasi va dinamikasini hisoblash borasidagi yangicha yondoshuvlari

- Milliy boylikning tarkibiy qismlarini belgilash, ularni yagona kontseptsiyalar asosida qiymatini, tarkibi, dinamikasi hamda foydalanish darajasini hisoblash va iqtisodiy-statistik tahlil qilish maqsadida, BMT statistika komissiyasi huzurida va Jahon banki qoshida Dj. Dikson (AQSh) va K. Xamilton (Kanada) boshchiligida ishchi guruh tuzilgan. Ushbu guruh milliy boylikning elementlari bo'yicha qiymati, tarkibi, aholi jon boshiga to'g'ri keladigan darajasi hamda indeksini hisoblaydi. K. Xamiltonning hisob-kitoblariga qaraganda, ko'pgina mamlakatlarda (aholi jon boshiga to'g'ri keladigan YaIM darajasi jahon darajasidan past bo'lganlarida) umumiy kapital hajmining o'sish sur'ati aholi sonining o'sish sur'atidan pastdir.

Jahonning ayrim mamlakatlarda milliy boylikning hajmi

Mamlakatlar	Umumiy hajmi		Aholi jon boshiga	
	Trln. dollar	AQShga nisbatan % da	Ming doll	AQShga nisbatan % da
AQSh	123,6	100	461,5	100
Rossiya	58,8	47	400,0	87
Yaponiya	53,3	48	423,4	92
Xitoy	35,5	29	28,5	6
Germaniya	30,8	25	375,1	81
Fransiya	21,1	17	359,6	78
Angliya	20,8	17	353,0	76
Italiya	17,0	14	295,8	64
Braziliya	14,2	11	89,0	19
Indoneziya	12,1	10	60,0	13

Jahonning ayrim mamlakatlaridagi milliy boylikning tarkibi

Mamlakatlar	Umumiy hajmi	Umumiy hajmdagi salmog`i		
		Inson salohiyati	Tabiiy resurslar	Qayta tiklanuvchi aktivlar
AQSH	100	77	4	19
Rossiya	100	50	40	10
Yaponiya	100	68	1	31
Xitoy	100	77	7	16
Saudiya Arabistoni	100	40	42	18
Angliya	100	79	2	19

2. MHT da milliy boylik tasnifi

Milliy boylik statistikasini tadqiq qilishda uning barcha qirralarini takomillashtirish borasida BMT ning MHT-93 dagi kontseptsiyasiga tayaniladi.

Ushbu kontseptsiyaga muvofiq mamlakat (tarmoq, sektor, hudud) ning mulkiy holati – milliy boyligi sof aktivlar qiymatiga tengdir.

Bu ko'rsatkichni hisoblashda «Aktivlar va passivlar balansi»dan foydalaniladi.

Iqtisodiy aktivlarning hajmi, dinamikasi va boshqa jihatlarini to'laroq o'rganish uchun statistika amaliyotida birinchi navbatda ular tasniflanadi. Tasniflashda turli xil aktivlarni u yoki bu muhim belgisi – xususiyati, xossasiga ko'ra oldindan belgilangan guruhlariga ajratiladi. Bu guruhlar BMT ning statistika komissiyasi tomonidan barcha mamlakatlar uchun standart holida tavsiya etiladi.

Milliy boylik tarkibi quyidagi mezonlarga ko'ra tasniflanadi:

- mulkchilik shakllari bo'yicha;
- qiymat elementlarining aylanish xarakteriga ko'ra;
- iqtisodiy yo'nalishi va takror ishlab chiqarish jarayonida qatnashishiga ko'ra;
- natura-buyum shakliga ko'ra;
- ma'muriy va iqtisodiy xududlarga ko'ra;
- iqtisodiyot tarmoqlari va sektorlariga ko'ra.

I. Milliy boylikni mulkchilik shakllariga ko'ra tasniflash

Milliy boylik hajmini mulkchilik shakllari bo'yicha davlat, xususiy korxonalar va tashkilotlar, ijtimoiy nodavlat va notijorat tashkilotlar hamda uy xo'jaliklari miqyosida baholashda statistik va buxgalteriya hisobotlari, inventarizatsiya va tanlama kuzatish (masalan, uy xo'jaliklari mol-mulkini hisoblashda) usullaridan foydalaniladi.

II. Milliy boylikni qiymat elementlarining aylanish xarakteriga ko'ra tasniflash

Bunda, milliy boylik quyidagi turlarga ajratiladi:

- asosiy fondlar;
- moddiy aylanma mablag'lar;
- aholining joriy va uzoq muddatli iste'mol qiladigan mulki.

Asosiy fondlar - iqtisodiyotdagi mehnat vositalari hisoblanib, korxonalar, tashkilot va uy xo'jadigida uzoq muddat (odatda 1 yildan ortiq) xizmat qiladi, qiymati esa milliy buxgalteriya standartiga ko'ra 50 minimal ish xaqi miqdoridan oshiq bo'lishi lozim.

Moddiy aylanma mablag'lar – iqtisodiyotdagi mehnat predmetlari hisoblanib, ular ishlab chiqarish maqsadlarida iste'mol qilinadi va odatda bitta ishlab chiqarish tsiklida o'z qiymatini ishlab chiqarilayotgan mahsulotga o'tkazadi.

Aholining joriy va uzoq muddatli iste'mol qiladigan mulki – aholiga tegishli bo'lgan maishiy, xo'jalik, madaniy va transport vositalari va shaxsiy maqsadda foydalanadigan kiyim-kechak, poyafzal va h.k.lardir.

III. Takror ishlab chiqarish jarayonida qatnashishiga ko'ra milliy mulk quyidagilarga ajratiladi: Ishlab chiqarish fondlari:

Ishlab chiqarish fondlari:

- a) ishlab chiqarish asosiy va aylanma fondlar;
- b) ishlab chiqarish vositalarining ijtimoiy zahiralari, er, o'rmon va boshqa tabiiy resurslar xolatini yaxshilashga sarflangan moddiy va mehnat xarajatlari.

Noishlab chiqarish fondlari:

- a) noishlab chiqarish ijtimoiy fondi: davlat boshqaruv va mudofa fondlari, ijtimoiy, kredit, sug'urta va ilmiy muassasalarning fondlari, ulardagi zahira va rezervlar;
- b) aholi iste'moli fondi: aholiga maishiy, madaniy va shaxsiy xizmat ko'rsatadigan tashkilotlarning fondlari (sog'liqni saqlash, maorif va madaniyat, uy-joy kommunal xo'jaligi), aholining shaxsiy mulki, istemol predmetlari (ishlab chiqarish va muomala sohasidagi tayyor mahsulot), ijtimoiy zahira va rezervlar.

Milliy boylik – iqtisodiy aktivlarning standart tasnifi

I. Nomoliyaviy aktivlar	II. Moliyaviy aktivlar
1. Ishlab chiqarilgan aktivlar	1. Monetar oltin va SDR
Asosiy fondlar	2. Naqd valyuta va depozitlar
Moddiy aylanma mablag'lar zaxiralari	3. Qimmatbaho qog'ozlar, aktsiyalardan tashqari
Qimmatbaho boyliklar	4. Kreditlar va qarzarlar
2. Ishlab chiqarilmagan aktivlari	5. Aktsiyalar va boshqa kapitalda ishtirok etish shakllari
Moddiy ishlab chiqarilmagan aktivlari	6. Sug'urta zaxiralari
Nomoddiy noishlab chiqarish aktivlari	7. Boshqa debitorlik/kreditorlik qarzdorlik

Aktivlarning qisqacha tavsifi

- **Nomoliyaviy aktivlar** tarkibiga barcha xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning ixtiyoridagi ma'lum davr mobaynida foydalanish yoki saqlashdan aniq yoxud potentsial iqtisodiy samara keltiruvchi ishlab chiqarish va noishlab chiqarish ob'ektlari kiradi. Ular ishlab chiqarilgan nomoliyaviy aktivlar va ishlab chiqarilmagan nomoliyaviy aktivlarga bo'linadi.
- **Asosiy fondlar** mahsulot ishlab chiqarish, bozor va nobozor xizmatlari ko'rsatishda ishtirok etuvchi hamda uzoq davr mobaynida foydalanishga mo'ljallangan aktivlarni o'z ichiga oladi.
- **Aylanma moddiy mablag'lar zaxiralari** – bular joriy yoki o'tgan davrda tayyorlangan va keyinchalik sotish yoki ishlab chiqarishda foydalanish uchun mo'ljallangan ishlab chiqarish zaxiralari, tugallanmagan ishlab chiqarish, tayyor mahsulot, qayta sotish uchun olingan mollardir.

3. Aktivlar va passivlar balansi

Aktivlar va passivlar balansi – aniq vaqt momentiga tuziladigan va ushbu aktivlar egasining aktivlari va moliyaviy majburiyatlari (passivlari) qiymatini aks ettiradigan hisobot qaydnomasi.

Ushbu balans institutsional birliklar, sektorlar va umuman iqtisodiyot bo'yicha tuzilishi mumkin.

Aktivlar va passivlar balansining yil boshi va oxiridagi ko'rsatkichlarini solishtirish sof aktivlar – milliy boylikning hajmi o'zgarishini (mutlaq va nisbiy) aniqlash imkonini beradi.

Makroiqtisodiy statistikada sof aktivlar – milliy boylik hajmini hisoblashda moliyaviy aktivlar (talablar) va moliyaviy passivlar (majburiyatlar) faqat tashqi mamlakatlarga nisbatan olinadi, chunki ichki talablar va majburiyatlar mamlakat miqyosida bir-biri bilan qoplanib ketadi.

Aktivlar va passivlar umumiy balansi

Aktivlar	Passivlar
1. Nomoliyaviy aktivlar	3. Moliyaviy majburiyatlar
2. Moliyaviy aktivlar	4. O`ziga tegishli kapitalning sof qiymati